



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 6-avgust

VI-104-99-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Tumanda "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi 156-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2024-yil 15-iyuldagi 01-3578-sonli xati, VI chaqiriq xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining 104-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2024-yil 15-iyuldagi 01-3579-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024-yil 26-martdagi "Mening bog'im" loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi 156-sonli qarori asosida tumandagi "Qoqsoy" MFY "Qoqsoy" qishlog'i hududidan 4,0 gektar yer maydoni "Tashabbusli budjet" jarayonida fuqarolar tomonidan qoldirilgan takliflar "ovoz berish" jarayoni yakunida "g'olib" deb topilganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi "Qoqsoy" MFY "Qoqsoy" qishlog'i hududidan 4,0 gektar yer maydonida "Mening bog'im" loyihasi uchun ajratilgan mablag'lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilsin.

4. Kattaqo'rg'on tuman hokimligining Axborot xizmati (J.Safarov) va tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (S.Sayidov)ga "ovoz berish" jarayonida "g'olib" deb topilgan taklif va undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Rashidov), tuman hokimining o'rinbosarlari (L.Raxmonov, Q.Tog'ayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2024-yil 6-avgustdagi
VI-104-99-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2024-yilda o'tkazilgan "Mening bog'im" loyihasi doirasida
g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

№	Loyiha ID raqami	Hudud nomi	Tuman nomi	Obyekt manzili (mahalla, ko'cha)	Loyiha doirasida amalga oshirilishi lozim tadbirlar mazmuni)	Loyiha qiymati (mln.so'm)
1	033333467008	Samarqand	Kattaqo'rg'on	"Qoqsoy" MFY "Qoqsoy" qishlog'i	Yashil bog' tashkil etish, besyatkalar qurish, sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va dam olish maskanlariga aylantirish	250,0